

**QASHQADARYO SHAHARLAR MA'MURIY TUZILISHIDAGI  
O'ZGARISHLAR VA SHAHARLARDAGI QURULISH VA  
BUNYODKORLIK ISHLARI.**

*Shodiyeva Fayoz Inoq qizi*

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining shaharlari infratuzilmasini yuksalishi tufayli yirik madaniy hamda ilmiy markazlariga aylandi. Sanoat korxonalaridan olinayotgan daromadlar hisobidan shaharlarning infratuzilmasini taraqqiy ettirish va shaharlarni yangi sanoat markazlariga aylantirish davlat siyosatiga aylandi.

Mustabid tuzum davrida shaharlardagi sanoat korxonalarini qayta jihozlash uchun zarur bo'lgan texnik vositalar ittifoqning turli zavodlarida ishlab chiqarilar edi, ularni olib kelish muammosi nihoyatda og'ir edi. Shu bilan birga, ushbu zavodlarning o'zi ham texnik ta'minotga muhtoj bo'lib, zamonaviy asbob uskunalari ishlab chiqara olmas edi. Shu tufayli mustaqillik yillarida eskirgan sanoat korxonalaridan voz kechib, jahon andozalariga mos zamonaviy sanoat korxonalarini qurish muhim masala qilib olindi<sup>1</sup>. Chunki mavjud sanoat korxonalari, asosan, mahsulotni qayta ishlashga mo'ljallangan edi, 1930-1960 yillarda qurilgan, moddiy va ma'naviy jihatdan eskirgan, korxonalar ishlab chiqargan sifatli mahsulot turlari zamonaviy talabni qondira olmas edi.

Shaharlardagi asosiy aholi sanoat va qurilish korxonalarida ishlab, xom ashyo to'xtab qolgan holatlarda zavod-fabrikalaridagi ishchi-xizmatchilarni ish bilan ta'minlash, ish haqi, oziq-ovqat ta'minoti eng muhim muammoga aylanardi. Natijada shaharlardagi demografik vaziyat og'irlashib, ishchi-xizmatchilar orasida ishsizlik muammosi yuzaga kelar edi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sanoat va qurilish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatining pasayishi shaharlarning budjet ta'minotiga, ish haqidan tashqari, ijtimoiy-maishiy turmush tarziga, obodonlashtirish,

---

<sup>1</sup>Турсунов.С.Н.ва бошқалар.Сурхондарё тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2004.–Б.480.

ko'kalamzorlashtirish, uy-joy qurilishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Qarshi, Shahrisabz, Muborak, G'uzor shaharlaridagi sanoati korxonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari asosan birlamchi qayta ishlangan mahsulotlar bo'lib, konserva mahsulotlari Rossiyaning sanoat shaharlariga jo'natilar edi. Eski texnologiyaga asoslangan oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatsizligi tufayli, do'konlarning peshtaxtalaridayillab turib qolar, natijada ish haqi va qo'shimcha imkoniyatlar uchun zarur mablag'larda tanqislik yuz berar edi.

Mustaqilikning dastlabki yillarida eski sanoat korxonalarini tiklash imkoniyati yo'qligi tufayli, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida, kichik va o'rta hamda qo'shmakorxonalarni qurib ishga tushirish asosida muammolarni bartaraf etishga qirishildi. Qarshi, Shahrisabz shaharlarida 1992 yildan boshlab kichik va qo'shma korxonalarni qurish hamda ishga tushirish masalasida dastlabki natijalarga erishildi<sup>2</sup>.

Ushbu shaharlarda sanoat ishlab chiqarishini tubdan isloh qilinishi natijasida ijobiy natijalarga erishildi. Chunki, ushbu mintaqalardagi sanoatkorxonalarisovet hokimiyati davrida nihoyatda sust rivojlangan, faqat mahsulotga birinchi qayta ishlov berishga moslashtirilgan edi. Katta imkoniyatlar bo'lishiga qaramasdan, tayyor iste'mol mahsulotlarini nooziq-ovqat yo'nalishiga ruxsat berilmagan edi. Sanoatdagi qoloqlikni bartaraf etish masalasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Shu davrda mavjud sanoat korxonalarinimodernizatsiya qilish, xalqaro standartlar asosida tovar ishlab chiqarish yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurish muhim masalaga aylandi. Ayniqsa, asosiy aholi markazi hisoblangan shaharlarda sanoatni tub islohotlar asosida qayta qurish, ularni zamonaviy talab asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga moslashtirish, sanoat korxonalarini rivojlantirish asosida shahar aholisini ish bilan ta'minlash, aholining moddiy turmush tarzini yaxshilash, shahar infrasturukturasini tubdan yangilash, davlat mustaqilligining iqtisodiy tamoyillarini mustahkamlash diqqat markazida turdi.

---

<sup>2</sup>Турсунов.С.Н.ва бошқалар. Сурхондарё тарихи.—Тошкент: Шарқ, 2004. —Б.481.

<https://scientific-jl.com/>

Mustaqillik yillari O'zbekiston sanoat korxonalari hayotida ham yangi davrni boshlab berdi<sup>3</sup>. 1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, xususiylashtirish va mulkchilik shakllarini o'zgartirish maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Respublika hukumatining iqtisodiy strategiyasi eng muhim uch vazifani, ya'ni ishlab chiqarishning pasayishini to'xtatish, iqtisodiy yuksalishning asosi sifatida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratishni hal qilishga yo'naltirildi<sup>4</sup>.

1990 yillar boshlarida O'zbekistonda 1623 ta sanoat korxonasi bo'lib<sup>5</sup>, shundan 92 ta sanoat korxonasi Qashqadaryo shaharlarida joylashgan edi<sup>6</sup>. Sanoat korxonalari joylashgan Qarshi, Shahrisabz shaharlarida xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni oshirish maqsadida qo'shimcha mablag'lar ajratilib, mahsulot turi hamda sifatini yaxshilash maqsadida zamonaviy, yangi jahon andozalariga mos kichik, o'rta va qo'shma korxonalar qurilib ishga tushirildi. Natijada shahar aholisini ish bilan ta'minlash, yangi zamonaviy sanoat boshqaruv malakasiga ega mutaxassislarni tayyorlash, sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, chet el sarmoyalari asosida yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini jalb etish bo'yicha muhim tadbirlar amalga oshirildi. Qarshi, Shaxrisabz, G'uzor shaharlarida belgilangan reja asosida sanoatdagi mavjud qoloqlik bartaraf etilib, kundalik talab-ehtiyoj asosida mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalari o'rnatildi. Shahar aholisi uchun zarur bo'lgan mahsulotning tannarxi arzonlashtirilib, korxonalarning ishlab chiqarish imkoniyatlari yildan-yilga oshib bordi, sanoat korxonalarida ish o'rinlari soni ko'paydi.

Qashqadaryo viloyatidagi Muborak, Koson, G'uzor, Kitob, Shahrisabz shaharlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash hamda yoqilg'i resurslarini

---

<sup>3</sup>Халқ сўзи, 1991. 24 июль.-Б.2.

<sup>4</sup>Mustakil O'zbekistonning yangi tarixi, 3 kitob. –Toshkent: Sharq, 2000. –B.298.

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi.Qomuslar bosh taxririya. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B.231.

<sup>6</sup>Narodnoye xozaystvo Uzbekskoy SSR v 1988 g. –Tashkent: Uzbekistan, 1989. –S.162.

qazib olish bo'yicha O'zbekistonda muhim o'rin egallaydi. Viloyat shaharlari respublikada qazib olinadigan tabiiy gazning 88%, neftning 92%, kondensatning 99,6%, oltingugurtning 100% ni beradi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari bo'lgan Koson yog'-ekstraksiya, Shahrisabz pillakashlik, Qarshi tikuvchilik fabrikalari, Qashqadaryo marmar aksiyadorlik jamiyati va boshqa 49 ta qo'shma korxona mustaqillik yillarida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiya asosida o'zining iqtisodiy salohiyotiga ega bo'ldi<sup>7</sup>.

Qashqadaryo shaharlarining asosiy sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish 1782 mln so'mga oshib, 93 ta asosiy sanoat va 743 ta yordamchi sanoat korxonalari tashkil etildi. Surxondaryo viloyatining qayd etilgan shaharlaridagi sanoat korxonalarida ishlovchi ishchilar soni 29961 kishini, asosiy sanoat korxonalarida ishlovchilarning soni 20201 kishini tashkil etdi<sup>8</sup>.

Shaharlarda xalq xo'jaligi har tomonlama rivoj topdi, bank, moliya-kredit tizimlari takomillashtirildi, uni jahon talablari darajasiga ko'tarish, milliy valyutani iqtisodiy jihatdan mustahkamlash masalasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. 1991-1993 yillarda aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari ko'rildi. Bu davrda dastlabki iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishipul-kredit siyosatini o'zgartirishda muhim omil bo'ldi.

---

<sup>7</sup>O'z MA, I 8-fond, 1-ro'yxat, 323-hujjatlar, 14-16-varaqlar.

<sup>8</sup>O'zMA, I 8-fond, 1-ro'yxat, 323-hujjat, 68-varaqlar.

<https://scientific-jl.com/>